

“MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASINING RUSCHA TARJIMASIDA BADIY SAN’ATLAR IFODASI

*B. Qurbonov*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Suyima G’aniyeva tomonidan 1970-yilda “Sobranie izbrannix” nomi ostida rus tiliga tarjima qilingan “Majolis un-Nafois” tazkirasidagi badiiy va ritorik san’atlar o’rganiladi. Tadqiqotda mumtoz adabiyotga xos bo’lgan “saj”, “tashbeh” va “irsol ul-masal” kabi san’atlarning tarjimada qanday aks etgani ko’rsatiladi. Asliyat va forsiy versiyalarda keng qo’llanilgan “saj” san’ati ruscha tarjimada kamroq ifodalangan. Biroq, tarjimon rus tilining boy lug’at imkoniyatlaridan foydalangan holda “tashbeh” san’atini mahorat bilan ifoda etgan. Maqolada turli she’riy misollar tahlil qilinib, ba’zi badiiy san’atlar tarjimada saqlanib qolishi, boshqalari esa moslashtirilgani yoki e’tibordan chetda qolishi asliyatning uslubiy chuqurligiga qanday ta’sir qilgani ko’rsatiladi. Ushbu tadqiqot fors va turkiy tillardan rus tiliga badiiy san’atlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va usullarni ochib beradi.

Kalit so’zlar: Majolis un-Nafois, ruscha tarjima, badiiy san’atlar, saj, tashbeh, irsol ul-masal, mumtoz adabiyot, tarjima tadqiqotlari.

doi: <https://doi.org/10.2024/7f240591>

“Majolis...” tazkisasi rus tiliga Suyima G’aniyeva tomonidan tarjima qilingan va 1970-yili nashr etilgan². Ushbu tarjima “Sobranie izbrannix” (Собрание избранных) deb nomlangan. Mazkur tarjima Sayid Hasan Ardasher hamda Pahlavon Mahmudlarni hayot va faoliyatlarining tarjimalari bilan birgalikda bitta jildda nashr etgan. Rus olimi, mashhur navoiyshunos S.N. Ivanov nashr jarayonida mas’ul kotib sifatida qatnashgan. Asar tarjimasining oxirida keltirilgan xulosada S. Ivanov “Majolis...”ning ilmiy, adabiy, axloqiy, tarixiy va boshqa ahamiyatli jihatlarini ta’kidlab, Suyima G’aniyevaning ushbu tarjimasini yuqori baholagan. Uning ta’kidlashicha, buyuk olim “Majolis...”ni turli yozma va toshbosma nashrlarini jamlab 1961-yilda uning ilmiy-tanqidiy matnini shakllantirgan. “Sobranie izbrannix” unvoni ostidagi ushbu tarjima esa Suyima G’aniyevaning buyuk o’zbek mumtoz adabiyoti asoschisi asarlarini tadqiq etish yo’lidagi xizmatlarining davomidir³.

Mumtoz adabiyot namunalari o’ziga xos jihatlaridan biri shundan iboratki, ularda asosan arab adabiyotiga xos bo’lgan so’z san’atlari ishlatilgan. Masalan, mumtoz she’riyatni aruz, qofiya va radifsiz tasavvur qilish imkonsiz. Hattoki nazmda ham qofiya ishlatilgan. Qofiyali nazm esa, mumtoz adabiyotda “saj” deyiladi. “Majolis...” tazkirasida so’z san’atining ushbu turi ishlatilgan. “Saj” san’ati asosan

¹ *Qurbonov Bobur Chorshanbiyevich, SamDCHTI, Yaqin sharq tillari kafedrasini mudiri*

² Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX

³ Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, С. 219

majlislarning kirish qismida ishlatilgan. Masalan, birinci majlisni oladigan bo'lsak, quyidagi tarzda boshlangan: "Ul jumladin, soliki atvor va koshifi asror..."¹. Nazmda qofiya ishlatish G'arb adabiyoti namunalarida ham bor, lekin unga alohida badiiy san'at sifatida baho berilmagan. Matnning chiroyli, jozibali chiqishi uchu bitta gapda bir nechta qofiyadosh so'zlardan foydalaniladi. Bugungi kunda reklama matnlarida aynan shu holatni ko'rishimiz mumkin. Mumtoz adabiyotda qofiyali nazmga ko'proq e'tibor berilganining asosis sabablaridan biri shuki "Qur'on" oyatlarida ham bu san'at o'z ifodasini topgan. Sharq adabiyotining mashhur nasriy durdonalari, jumladan Sa'diyning "Guliston"i, Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"i va boshqa asarlarda "saj" san'ati ishlatilgan. "Majolis..."ning forscha tarjimalarida mazkur badiiy san'at ishlatilgan joylari asliyatga o'xshagash shaklda tarjima qilingan, ammo ruscha tarjimasida esa bu narsaga e'tibordan chetda qolgan. Albatta bu san'atning tarjimada o'z ifodasini topmaganligi asarning muhtavosiga hech qanday ta'sir yetkazmaydi.

"Majolis..."da ko'p ishlatilgan badiiy san'atlarning yana biri bu "tashbeh" san'atidir. Ruscha tarjimada "tashbeh" masalasiga alohida e'tibor bilan qaralgan. "Tashbeh" san'ati sifat so'z turkumi bilan bog'liq she'riy san'at hisoblanadi. Rus tili sifat so'z turkumi jihatidan nihoyatda boy til ekanligi sababli turkey va forsiy asarlardagi tashbeh san'atini talab darajasida tarjima qilish uchun keng imkoniyatga ega. Suyima G'aniyeva mazkur tazkirani tarjima qilish uchun rus tilidagi sifatlardan mohirona foydalangan. Jumladan, "Xurdabinlar" - "пронцательные", "xiradoyinlar" - "мудрые" va hokazo so'zlarning muqobil variantini bamavqe' va go'zal tarzda qo'llagan.

Tashbeh san'ati va uning ruscha tarjimadagi ifodasini tahlil qilish maqsadida tazkirada zikr qilingan bir nechta shoirlarning ijod namunalariga e'tibor qaratamiz.

Jumladan, birinchi majlisdan joy olgan Xoja Ismatulloning quyidagi she'rida tashbeh san'ati mohirona ishlatilgan.

*Dil kabobest k-az u sho'r barangextaand,
Vaz namakdoni Xalilash namake rextaand²*

Ushbu baytda yurakning holati chiriqli tarzda tasvirlab berilgan va unda tashbeh san'ati ishlatilgan. Shoir yuragini kabobga o'xshatadi. Tashbeh san'atidan tashqari bu baytda boshqa turli so'z san'ati ham ishlatilgan. Bu baytda bir vaqtning o'zida "sho'r" so'zining ikta ma'nosini ifodalagan. Buni Suyima G'aniyeva o'z tarjimasida "игра слов"³, ya'ni so'z o'yini deb izohlagan. Baytning tarjimasida esa tashbeh san'ati ifoda etilmagan. "Dil kabobest" ya'ni yurak kabobdir degan joytini "Сердце моё изжарилось" deb tarjima qilgan va bunda yurak kabobga o'xshatilmagan. Tarjimada bu ifoda "mening yuragim qovurildi" shaklida keltirilgan.

Ruscha tarjimasi:

*Сердце моё изжарилось и оно взволновано
Ибо в него из солонки Халила посыпали солью⁴*

Tashbeh san'atining tarjimada aynan ifoda etilganligini Mavloni Bisotiy she'rlaridan keltirilgan quyidagi namunada ko'rishimiz mumkin:

Dil shishavu chashmoni tu har go'sha barandash,

¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13 жилд. - Т.: Фан, 1997. -В, 3.

² Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13 жилд. - Т.: Фан, 1997. -В, 6.

³ Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, С. 18

⁴ Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, С. 18

*Mastand, mabodoki, banogah shikanandash.*¹

Bu baytning ma'nosi qo'yidagicha: Yurak shishadir va sening ko'zlaring unio lib keymoqdalar. Qo'rqamanki, sening mast ko'zlaring bu shishani mabodo sindirmasin. Ajoibb bir tashbeh hamda tashxis san'atidan foydalangan.

Ruscha tarjimasida:

*Сердце как хрусталь, глаза твои его унесут за собой
Они опьянены, боюсь, как бы они вдруг не разбили его*²

Baytning tarjimasida ham uning original variantidagidek yurak shishaga o'xshatilgan. Baytda ishlatilgan badiiy san'atlar tarjimada mukammal tarzda ifoda etilgan.

Xuddi shu tarzda tahlilni davom ettirib tazkirada keltirilgan ko'plab baytlardagi badiiy san'atlarning tarjimadagi ifodasini ko'rishimiz mumkin.

Mumtoz adabiyotda juda keng ishlatilgan adabiy san'atlardan yana biri bu "irsol ul-masal" san'atidir. Bu san'atni she'riyatda ishlatishdan maqsad bayon qilingan fikrga muvofiq biron bir maqol keltirib ma'noni yanada kengroq ochib berishdir. Mavlono Kotibiyning Astarobod shahri haqida yozgan quyidagi baytlarida "irsol ul-masal" san'ati ishlatilgan.

*Zi otashi qahri vabo gardid nogahon xarob
Astarobodki, xokash bud xushbo'tar zi mushk,
Andar u az piru barno hech kas boqi namond,
Otash andar besha chun aftad na tar monad, na xushk.*³

Bu baytlar bilan shoir Astarobod shahrining o'tmishda nihoyat obod va go'zal shahar ekanligi va bir hodisa natijasida vayronaga aylanganini tasvirlaydi. Oxirida esa "Otash andar besha chun aftad na tar monad, na xushk" (Tarjimasida: O'rmonga olov tushsa ho'l ham qolmaydi quruq ham qolmaydi) degan maqolni keltiradi. O'zbek tilida "O'rmonga yong'in tushsa ho'lu quruq birday yonadi" degan maqol bor va bu yuqoridagi forscha maqolning o'zbek tilidagi muqobil variantidir. Ammo rus tilida mazkur maqolning muqobil shakli yo'qligi sababli ruscha tarjimasida faqatgina uning ma'nosi ochib berilgan. Tarjima to'liq va chiroyli shaklda amalga oshirilgan, ammo "irsol ul-masal" san'atining ishlatilganligi ifodalanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Алишер Навои. *Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой* - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX
- [2]. Алишер Навоий. *Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13 жилд.* - Т.: Фан, 1997.
- [3]. Қурбонов, Бобур. "Мовароуннахр ва Хуросон тазкирачилик мактаби шаклланиши." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5 (2022): 471-482.
- [4]. Hazratqulova, Elmira. "Xorij Navoiyshunosligida Husayn Boyqaro adabiy majlislarining o'rganilishi." *Konferensiyalar| Conferences. Vol. 1. No. 10. 2024.*
- [5]. Chorshanbiyevich, Qurbonov Bobur. "On the translation of Persian complements." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.6 (2024): 266-269.

¹ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13 жилд. - Т.: Фан, 1997. -В, 7

² Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, С. 25

³ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 13 жилд. - Т.: Фан, 1997. -В, 6

[6]. Курбонов, Бобур Чоршанбиевич. "Мажолис ун-нафоис" нинг дарий тилидаги таржимаси хусусида." *Международный журнал искусство слова* 5.5 (2022).

[7]. Ravshanovna, Kurbanova Gulchiroy. "Alisher Navoiy asarlaridagi muammo janri fransuz olimlari va tarjimonlari tadqiqida." *Journal of new century innovations* 4.1 (2022): 154-162.